# SAB'AI SAYYOR



Shoh Bahrom Rum bilan Chinni o'ziga bo'ysundirgach, Chin xoqoni bilan Rum qaysari unga tobe bo'lib qoldilar. Keyinchalik yetti iqlim shohi unga boj to'laydigan bo'ldi. Farmonga ko'ra xiroj to'lashi kerak bo'lgan har bir hukmdor zarur mablag'ni har yili to'plab poytaxtga o'z vaqtida yuborib turishlari shart edi. Tobe mamlakatlarda olingan hosildan ham to'xtovsiz sovg'a-salomlar kelib turardi. Shoh Bahrom esa ertadan kechgacha ayshu ishrat bilan band bo'lib, musiqa va ashula tinglash bilan orom olardi. Uning saroyida eng mashhur sozandayu hofizlar to'plangan bo'lib, ular hamma joyda hukmdorga hamrohlik qilishardi.

Shoh Bahrom kunlari ovsiz o'tmas, kechalari esa xilma-xil soz, jonbaxsh ashulalarni tinglashni yoqtirardi. Ov vaqtida qaysi tomonga o'q otsa, albatta biror hayvonni qulatar, ularning qoniga hamrang may ichishdan rohat olardi. Ov qilib borarkan, qayerda biron go'zal manzil duch kelsa, o'sha yerda dam olib qadah ichar, changu rubob kuylaridan huzur qilib, o'zi o'ldirgan hayvonlar go'shtidan kabob tanovul qilardi.

Bir kuni shoh ov mahali bir maydonda bazm tuzib ishrat bilan band ekan, xonandaning so'lim ashulasi bilan o'z ko'nglini xush etarkan, o'zining butun olamga qiblagoh ekanidan shodlanib: «Xudoyim meni ahli olam hukmdori qilgan ekan, buning shukronasi uchun elni shod aylab, adolat bilan ish yuritishim, muhtojlarga mehribonlik ko'rsatib, beva-bechoralar dillarini xushnud etmog'im zarur», deb xayol surar ekan, chor atrofni tomosha qilib bahra olardi. Shu payt dasht bo'ylab tez-tez yurib borayotgan bir odamga ko'zi tushdi. Yayov yo'l bosayotgan bu insonga achingan shoh unga yaxshilik qilmoqni istab bir mulozimga: «Tezda otingga mingin-da, yana bir otni yetaklab, hu anavi musofirni to'xtatib, otga mindirgin va uni huzurimga olib kelgin», deb buyurdi. Xizmatkor yigit shoh hukmini bajo qilib, yo'lovchini hukmdor oldiga boshlab keldi. Shoh Bahrom uni ochiq chehra bilan kutib olib, hol-ahvol so'radi. Biyobonda kezib

yurgan kishi yer o‘pib, ta’zim bajo keltirdi-da, o‘rnidan turib nihoyatda yoqimli so‘zlar bilan shahanshohga shunday maqtov yog‘dirdi-ki, eshitganlar «Ofarin!» deb yubordilar. Hukmdor uni o‘tirishga taklif qildi. Mulozimlar darhol xilma-xil taomlaru, may to‘la idishlarni keltirishib, mehmonni ziyofat qilishga kirishishdi. Musofirning boshi maydan qizib borar ekan, shoh unga ketma-ket savollar berar, u esa o‘zining dono javoblari bilan mezbon ko‘ngliga shodlik bag‘ishlardi. Dasht kezuvchi bu odamning aqlu donishiga qoyil qolgan Bahrom unga murojaat qilib: «Seni ko‘p ilmlardan xabardor ekanliging sezilib turibdi. Bu makonda kezib yurishing sababini, o‘zingning kasbu koringu qilgan ishlaringdan so‘zlab bergil, biz ham ulardan bahravor bo‘laylik», dedi. Mehmon yer o‘pib shunday javob qildi: «Men bu dashtda musofirlardek kezib yurgan bo‘lsam ham, o‘z ishimda zamonaning yagonasiman. Do‘stu hamrohlarim yo‘q, hech kimsaga yuragimdagi sirni oshkor qilmaganman. O‘zimni ham, hozir aytib beradigan sirimni ham odamlardan pinhon tutib yurdim. Bu dashtda kezib yurishimdan maqsadim jahon podshosi bo‘lgan shoh Bahrom huzuriga yetib borib, unga yashirgan sirlarimni so‘zlab berish edi. O‘sha manzilga yetmasimdan bu so‘zni so‘rab qolding. Aytmay desam, maqsadim hosil bo‘lmay qoladi. Sen ham shohga o‘xshaysan, Bahrom bo‘lmasang ham, maqoming unikidek baland. Sen unga juda ham o‘xshab turibsan.

Ko‘nglimni g‘amga solib qo‘yding: aytmasam ham yomon, aytsam ham». Shoh bu so‘zlardan bog‘ kabi ochilib ketdi-da, chirog‘ shu’lasi kabi so‘z boshlab, shunday dedi: «Ey dashtda shitob bilan kezib yurgan banda, sen o‘z maqsadingga yetganingdan bexabarsan. Agar Bahromni qidirib yurgan bo‘lsang, gapiraver: men sen izlab yurgan shoh Bahromman».

Musofir bu so‘zni eshitib, sevinib ketdi-da, shukronasiga sajda qilib, mo‘l-ko‘l duo ayladi, yer o‘pib, odob bilan o‘tirib so‘zga kirishdi: «Shoh mendan ahvolim haqida so‘zlab berishni so‘ragan edi. Meni jahon eli Moniy deb ataydi. Ko‘pgina bilimlarni bilaman, lekin surat chizishda shuhrat qozonganman».

Shoh xuddi shunday odamga talabgor edi, Moniy so‘zlaridan quvonchga to‘ldi, o‘lgan odam yana tirilgandek, xursand bo‘lib ketdi. Mehmonni quchoqlab, hurmat ko‘rsatdi, ko‘p lutfu ehsonlar qilib, u aytmoqchi bo‘lgan sir mazmuni haqida savol berdi: «Men yetti iqlimni kezib chiqqanman. Jahondagi bor ajoyibotlarni ko‘rganman. Bir mahal Xitoy tomonga yo‘lim

tushdi. U yerda bir savdogar bilan tanishib qoldim. Uning molu dunyosi son-sanoqsiz, puli yuz ming tumandan ham ko'proq bo'lib, duru la'llari dengizu kondek edi.

Ammo uning shunday bir bebaho duri bor ediki, har bir bazmni oy kabi yoritardi. U qiz asli xitoylik bo'lib, nihoyatda go'zal va xushovoz edi. Qo'liga changni olib, navo cheksa, uni ko'rib, eshitgan har bir odamning joni mingta bo'lsa, bittasi ham qolmasdi. Mendek kimsa yuz ming til bilan yuz ming yil maqtasam ham uning ta'rifini tugatolmayman. Qizning xojasi uning go'zalligini xalqdan asrash uchun sandal va ud daraxtlaridan kajava yasattirgan, unga xilma-xil qimmatbaho matolardan yopib, la'lu durlar bilan bezagan. Men aytgan go'zalni o'sha kajava ichida olib yuradi. Unga atab sandal va uddan chang yasattirgan bo'lib, uni go'zal qiz chalib turadi.

Xoja u Zuhravash paripaykarni sotmoqchi ham bo'lgan edi, yuz minglab xaridorlar chiqdi-yu, birontasi ham so'ralgan narxni berolmadi, chunki uning bahosi Xitoy mamlakatining xirojiga teng edi. Avvaliga uni Xitoy xoqoni sotib olmoqchi bo'ldi, lekin a'yonlar bunga qarshi chiqdilar. «Bor davlatingni berib, u qizni sotib olsang, shoh Bahromga yuboriladigan xirojni qanday to'laysan? Qo'shin yuborsa, sipohing yo'q, qurollaring yo'q, unda holing ne kechadi? Yaxshisi bu istagingdan voz kechgin, nafs deb iztirob chekma, mamlakatingni xarob etma», deyishdi ular. Shundan so'ng xoqon o'z muddaosiga erishish tilagini unutdi. Men esam u go'zal haqida senga xabar berishga ahd qildim-da, huzuringga sovg'a bilan boray deb, u qizning suratini chizdim», deb toza xitoy ipagiga ishlangan rasmni unga uzatdi. Shoh u pari tasvirini ko'riboq devona bo'ldi. Hech kimga bironta ham so'z aytmay oqshomgacha rasmdan ko'zini uzmadi. Ishq shohni bechoraga aylantirdi. Moniy bu holatni ko'rgach, Bahromga: «O'z ishingga biron tadbir o'ylab top. Toki biron hodisa yuz berib, u pari qo'ldan ketib qolmasin. Bunday hol yuz bersa, ilojini kim topa oladi?» dedi. Shoh unga: «Meni bu surat shaydo qildi. Bu dardimga o'zing davo topgin. Ayt, uning visoliga yetishish uchun nima qilay?» deb iltijo etdi. Moniy dedi: «Ishbilarmon, aqli raso kishilardan yuborib, qiymatini to'lasang, o'zingga Xitoy xoqoni yuboradigan xirojdan voz kechsang, murodu maqsadingga yetishasan. Yo Xitoy xirojidan kech, yo u parivash xayolini unut».

Shoh Bahrom buni eshitgach: «Bu holda qizga yetishish uchun Xitoy moligina emas, jahon molidan ham voz kechishga tayyorman», dedi-da, donolik va poklik bilan tanilgan yuztacha kishini, ko'plab xizmatkorlar, kanizlarni tezlik bilan Xitoy tomon yo'llashga amr qildi. Xoqon nomiga ham xat yozib berdi. Ularning barchasi jo'nab ketishgach, Bahrom qo'lidagi surat, qoshidagi Moniy bilan joni notavon bo'lganicha qoldi.

Shoh Bahrom hukmiga ko'ra Xitoy sari yo'l olgan karvon o'zlari ko'zlagan manzilga yetib borgach, donishmandlar xoqon saroyiga borib, nomani hukmdorga topshirdilar va olampanoh maqsadi haqida unga so'zlab berdilar. Xon qo'lini ko'ksiga qo'yib, xizmatga kirishdi va u go'zal qizning xojasini o'z huzuriga chaqirtirdi-da, shoh Bahrom muddaosini bayon qildi. Xoja xoqondan o'zi talab qilgan bahoni – Xitoy mamlakatining bir yillik xirojini olgach, qizni saroyga olib kelib, Bahrom yuborgan elchilar qo'liga topshirdi. Ular fursatni boy bermay, qizni kajavaga o'tqazib, yurtlari tomon jo'nadilar. Karvon dashtlardan ildam yurib borardi.

Bu payt Dilorom ishqi bilan o'rtanayotgan shoh Bahrom hijrondan oh tortib, o'z sevgilisini orziqib kutardi. Ishq dardi uni behol qilib qo'ygan, har bir kun ko'ziga bir yilcha bo'lib ko'rinardi. Tunu kun fig'on chekib, yori visoliga intizor bo'lardi. Sabru qanoati tugab borayotgan shoh dildor suratiga qayta-qayta boqib, gohida bexush bo'lib o'zini yo'qotar, bir joyda biron soat ham tinchib o'tira olmay, qasrda ham, bog'da ham kezib orom topa olmas, qasr ustida bazm uyushtirib, u yerdan yo'lni tinmay kuzatar, biron chang yo qora ko'rinib qolsa, taniga titroq tushib, hushidan judo bo'lar, o'ziga kelgach yo'lga mulozimlarni chiqarar, sevgilisidan nishon topilmagach, yana o'tli fig'on chekar, saroyda kutishga toqati toq bo'lib, ov bahonasida otga minib, dasht tomon yo'l olar, Xitoy yo'li tomon yurib, yoridan xabar topish uchun duch kelgan kishilarni savolga tutar, Xitoydan kelayotgan odamlar uchrab qolsa, qayta-qayta murojaat qilib dilbari haqida biron xabar eshitishga orzumand bo'lardi.

Moniy shohning bu ahvolini ko'rib, uni yupatishga, ko'ngliga taskin berishga intilib, turli afsonalar so'zlab berar, lekin Bahrom uning rivoyatlariga e'tibor ham bermasdi. Xullas, shoh ancha vaqtni shunday beoromlik bilan o'tkazdi. Nihoyat, bir kuni shohga u orziqib kutayotgan parivash kelayotgani haqida xabar yetkazishdi. Bahrom u quyosh o'zining hajr shomiga nur sochishidan

quvonchga to'lib, jismiga iztirob tushdi. Xitoy sari yo'l olgan karvon shaharga yetib kelgach, shoh yo'llagan kishilar Xitoy xonining maktubini, yuborgan sovg'a-salomlarini, gulchehra go'zalni topshirishdi. Shoh ularni qimmatbaho ehsonlar bilan siyladi va »Sarvi ra'noni o'zi uchun hozirlangan haramdagi xos hujraga olib boringlar», deb buyurdi.

Dilorom shoh tayinlagan uyga jannat bog'iga qadam qo'ygan hurdek kirib keldi. Birozdan so'ng shoh Bahrom tez-tez qadam bosib uning huzuriga tashrif buyurdi. Shohning jismi betob bo'lib, ko'ngli haroratga to'la, o'zi ishqdan mastu bodadan sarxush edi. Diloromga ko'zi tushgan shoh jannatda bezakdor qasru uning ichida yana bir jannatni ko'rgandek bo'ldi. Bu jannat jonli hur, yo'q, hur emas, balki nur sochuvchi quyosh edi. Yuzi yonidagi qop-qora uzun sochlari go'yo Chin mamlakatidan mushk olib kelgan karvonga o'xshar, yuzi gulzordek go'zal bo'lib, ikki labi ajoyib ikki gulbargni eslatardi. Bu lablar so'zlash uchun ochilganida, har tarafga durlar sochilardi. Rangi la'l (yoqut)ni eslatuvchi bu ikki lab go'yoki jon bo'lib, «jon» so'zi oxiridagi nun harfining doirasi uning baqbaqasiga o'xshab ketar, go'yoki taqdir kotibi «jon» so'zini yozish chog'ida «nun» harfi sig'may qolib, uni pastga joylashtirgandek ko'rinardi. Tishlari la'l ichidagi durlar tizmasi yoki obi hayot (hayot suvi)dagi shudringga o'xshardi. Qoshlari payvasta-tutash bo'lib, ikki qulog'idagi ikki yaltiroq dur ikki yulduzdek nur sochib turar, qaddi jannat niholidek, beli esa xayol ipidek bo'lib, bu ipni topish juda qiyin edi. Ustida gulgun ipakdan tikilgan ko'ylak bo'lib, yuziga yashil ro'mol yopingan, binafsharang to'ni xilma-xil qimmatbaho toshlar bilan bezatilgandi. Ushbu ko'rinishdagi Dilorom hur emas, bashar ofati bo'lgan pari kabi go'zal edi.

Shoh kirib kelganida, u o'rnidan turib yer o'pdi. Shoh unga nazar tashlab, qizning suratdagiga qaraganda yuz bora latofatliroq ekaniga ishonch hosil qildi. Qog'ozdagi tasvirni ko'rib, jismu jonidan ayrilgan shoh uning asliga boqa olgaymikin, boqqanida o'z hushidan ayrilmasmikin? Xullas, shoh o'z muddaosiga – Diloromiga yetishdi. Xonada ikkovidan boshqa hech kimsa yo'q bo'lib, Bahrom o'z sevgilisi bilan birga edi. Bu manzilda ne ishlar bo'lib o'tganini bayon qilishga esa ojizman.

## XIV

Murodiga yetishgan shoh Bahrom yana ayshu ishratga berilib ketdi. Goh jannatmisol gulshanda, goh jannatga namuna bo'larli qasrda shohona bazm uyushtirar, go'zal Dilorom u bog'ni parixonaga aylantirardi. Gul yuzli sarvi qomat dildoriga shaydolik bilan boqarkan, shoh dam-badam aqlu hushidan ayrilardi, qiz changini qo'liga olib kuy boshlaganida, jon iplarini uzar, eshitganlarni aqlidan judo aylardi. Chang torlaridan taralayotgan ohanglar qaqnus degan afsonaviy qushning tumshug'i teshiklaridan chiqayotgan ajabtovur kuylar singari butun elni o'ziga maftun etar, navolardan bor olam o'rtanardi.

Shoh Bahrom o'z dilbari chehrasidan ko'zini uzolmas, navosini tinglab to'ymasdi.

*Bo'lubon jonsiz, o'lmayin onsiz,*
*Onsiz o'lg'on zamon bo'lub jonsiz.*
*Tun kun lah[1]ni birla boda yutub,*
*Yuzidin bazmi ayshini yorutub,*
*Ko'rmasa oni qolmayin joni,*
*Kiribon joni ko'rgach-o'q oni.*
*Shah tuzub bazm ul pari birla,*
*Charx xurshidi xovari[2] birla.*
*Ul navo cheksa, bu fig'on tortib,*
*Chu ul ruxsor ochib, bu jon tortib.*
*Gah sahro navardu, dashtxirom,*
*Ichibon saydning nishotig'a[3] jom.*
*Onda ham hajrin ittifoq etmay,*
*Oni o'zdin dame yiroq etmay.*

Shoh sahro kezib ov qilib, o'z ko'nglini xursand etar ekan, bundan Dilorom ham huzur topardi. Shoh sayd etsa, oyga o'xshash pari shohni sayd qilardi. Shoh biron hayvonni halok etsa, Dilorom o'z ashulasi bilan jahonga g'avg'o

---

[1] lahn – ovoz, kuy
[2] xurshidi xovari – sharq quyoshi
[3] nishot – shodlik

solardi. Kuy bilan nag'madan lazzatlanayotgan Bahrom sevgilisi qo'lidan may ichishni istar, bu bilan go'yo o'z ko'nglidagi o'tni pasaytirmoqchi bo'lardi. Dilorom visoli uning joniga o't solar ekan, undan ayrilishni xayoliga ham keltirmas, yori ham, do'sti ham, hamrohi ham, suhbatdoshi ham shu pari edi. Bir dam usiz qolsa, yoqasi o'rniga ko'ksini chok qilardi. Oxiri shoh mamlakatni boshqarishni ham unutib qo'ydi. Davlat ishlariga ham, sipohlar ahvoliga ham e'tiborsiz bo'lib qoldi. Uch-to'rt yil shu holda kechgach, el bu ishlardan shikoyat qilishga tushdi, xalq ichida turli gap-so'zlar, hikoyatlar tobora ko'proq tarqala boshladi. Kimki ishq bilan oshino bo'lsa, mamlakatda tinchlik, xotirjamlik yo'qoladi. Ishq seli koshonalarni yiqitar ekan, unga saroy bilan vayrona farqsizdir. Ishq ajdahoni chumoliga aylantirib, shohni gado qiladi. Xullas, jahon shohi bo'lgan Bahrom ishq askarlariga asir bo'lib, sohibjamol yori bilan aysh qilishdan boshqa hamma narsani unutdi. Har kuni yangi makonda kuy va ashula eshitib, uning husnu ovozidan bahra olib, boda ichish shohning odatiga aylandi.

*Bodakim olsa ixtiyor eldin,*
*Ne ajab chiqsa har ne bor eldin.*
*Ishq ham mayg'a aylasa imdod,*
*Tong emas borsa boru yo'q barbod.*

## XV

Shoh Bahrom oshiqligu mastlik bilan mashg'ul ekan, g'aroyib ikki ish yuz bergan edi: birinchidan, u ayshu ishrat bilan band bo'lib davlat ishlarini unutgach, mamlakatda beboshlik boshlanib, xalq xohlaganini qilishga tushdi. Zolimlar bosh ko'tarib, xalq qora kunlarga qoldi. Qaroqchilar tobora ko'payib, barcha yo'llarda talonchilik qila boshlashdi; ichkilikbozlik kuchayib, din susaya bordi. Dashtlar bo'rilar bilan to'lib ketdi, ularga qo'ylargina emas, cho'ponlar ham yem bo'la boshladi. Bu hollardan ogoh bo'lgan a'yonlardan bir nechtasi mamlakatu xalqning ahvoli haqida shohni yashirincha xabardor qilishdi. Bahrom ularning so'zlarini tinglagach, mulohaza yuritib, qanday chora topish haqida o'ylanib qoldi. Nihoyat «Men shoh ekanman, bunday oy yuzli soqiylar topilaveradi, shoh bo'lmaganimda uning visoliga yetisha olarmidim?» degan

xulosaga keldi. Uning ko'ngli mulku xazinani tanlagan bo'lib, ishqni tark etishga bahona izlardi.

Shoh shu xil xayol bilan yashasa ham, hanuz kunlari ov qilish va yor qo'lidan may ichish bilan o'tar ekan, toju taxt ishi uni tashvishga solib qo'ygan edi. Bir kuni shoh shirakayf holda ov qilar ekan, oy yuzli yori Dilorom ham yonida edi. Shu chog' dashtda tez yugurib borayotgan chiroyli bir g'azol-ohuni ko'rib qoldi. Shoh o'q otishga shunday mohir ediki, yonidagi hamrohlari qanday xohlashsa, hayvonni ular istagandek qilib otib o'ldirardi. Saydning qaysi tukini nishonga olsa, o'qi o'sha joyga borib tegardi. Shoh Bahrom yonidagi gul yuzli go'zalga qarab: «Ey parivash, tez yugurib borayotgan bu g'azolning qaysi yeriga o'q otay, sen nimani buyursang shunday o'ldirayin», dedi. Dilorom: «Oldin ikki qo'lini tushovla, toki u o'rnidan qo'zg'alolmay qolsin, so'ngra uning bo'g'ziga o'q ur», deb javob qildi. Shoh o'z yori istagini bajo qilish uchun sadoqdan ingichka bir o'qni oldi-da, ohu tomon otib ikki qo'lini biriktirib qo'ydi. So'ng yo'g'onroq boshqa bir o'qni shunday otdiki, ohuning bo'g'zi kesilib, qoni oqa boshladi. Dilorom nimani orzu qilgan bo'lsa, shoh barchasini bajardi: hech kim qilolmaydigan mohirlikning uddasidan chiqdi. U o'z ishi uchun parivashning tahsin aytishini kutgan edi, lekin o'z husnu jamolidan mag'rur go'zal shohga tahsin uchun og'zini ham ochmadi, uning qo'lini ham o'pmadi-da: «Har kim bir ishda ko'p mashq qilsa, shunday natijaga erishadi», deb qo'ya qoldi. Shohga «bopladimg, barakalla!» deyish o'rniga, uning mahoratini mashq natijasi deb atash bilan cheklandi. Dilorom o'z so'zini yana bir takrorlagan edi, shohning qoshi chimirildi, mahbubasi uning jahli chiqqanini sezib, o'z xatosini tuzatmoqchi bo'ldi-yu lekin:

*Dedikim: «Shohga ne itobdurur,*
*Kim bu so'zkim dedim, savobdurur.*
*Menki bir nag'ma soz qilsam chang,*
*Ruh chiqmoq sari qilur ohang.*
*Yo'q edi bu muloyamat[1] birla,*
*Munga yetti mudovamat[5] birla.*

---

[1] muloyamat – muloyimlik
[5] mudovamat – uzluksiz mashq qilish

*Shohkim bir kiyikka urdi xadang,*
*Desam idmonni[6] ishga keldi batang».*

Bu so'zlarni eshitgan shohning g'azabi toshdi, parivashning ikkita gapi qahrini keltirdi-da, uni so'yib o'ldirmoqchi bo'ldi. Ba'zi a'yonlar «Ayol kishini bu tarzda qatl etish yaxshi emas», deyishgach, jallodlar Diloromni shoh amriga ko'ra kajavadan tushirib, bir biyobonga olib bordilar. Atrofi necha kunlik yo'l bo'lib, suv uchramaydigan bu dashtda zaharli giyohlardan boshqa hech narsa o'smasdi. Parivashning uzun sochlari bilan qo'l-oyoqlarini bog'lab, o'sha yerda qoldirdilar-da, shoh huzuriga qaytib, bo'lgan ishlarni so'zlab berdilar.

Bu payt shoh may bilan g'azabdan o'zida emasdi. Shu kuni oqshomgacha paydar pay may ichsa ham g'azabi pasaymadi. Shomda mast bo'lib uxlab qoldi. Tong chog'i ertalabki mayni ichishni istab qarasa, yonida mahbubasi ko'rinmadi. «Mahvash qayerga ketdi?» deb so'ragan edi, mahramlar kecha yuz bergan voqealarni aytib berishdi. Shohga yorug' olam qorong'u bo'ldi-yu, boshini quyi solganicha qilgan ishlarini eslay boshladi.

*Bildikim qahr sarsari esmish,*
*O'z qo'li birla o'z boshin kesmish.*
*Dedi: «Ushbu zamon o'zum borayin,*
*Ul biyobonni bir-bir axtarayin.*
*Qayda bo'lsa topay nigorimni,*
*Qilayin sadqa joni zorimni.*
*Tirik o'lsa bo'lay fidosi aning,*
*Beribon jon, topay rizosi aning.*
*O'lgan o'lsa, o'zumg'a tig' urayin,*
*Diyatig'a o'zumni o'ldirayin».*

Lekin toju taxt nomusi, odamlar oldidagi xijolat, aqlu farosati bu ishlarni qilishga yo'l bermadi. Xuddi bir chumoli ikki ajdaho orasida qolganidek, joni ikki balo o'rtasida iztirob chekardi: o'lik ham emasdi, tirik ham. Uni tirik deb bo'lmasdi.

---

[6] idmon – mashq

## XVI

Shoh Bahrom yig'lashga emas, kulishga munosib bo'lgan bunday ishni qilib qo'ygach, ikki kungacha o'ziga kelolmay, ko'nglini shu'la, jonini o'q qiynadi. Uchinchi kuni holiga qaytdi-yu, umrining yorug' kuni qora tunga aylanganini bildi. Tama' uning ko'ngli mulkini barbod qilgan edi: ichiga chaqmoq tushib, vujudini o'tga g'arq qilgandek bo'ldi. Hajrdan joni og'ziga yetib, o'rnidan turdi-da, yo'lga tushib mahbubasi tashlab kelingan vodiy tomon ot choptirib ketdi. Yetib borgach, dashtu sahroni kezib chiqdi-yu, o'zi izlagan sarvi ra'noni topa olmadi. Ma'yus bo'lib yuzlariga shapaloqlar urdi, baland ovoz bilan Shirinini topa olmagan Farhoddek faryod chekdi. Bemor oshiq kabi yerga yiqilib, chala so'yilgan hayvondek talpinar, ko'zidan qonli yoshlarini to'kib, falakning ko'nglini ham qon qilardi.

*Dedi: «O'z jonima ne qildim, voy!*
*Bo'lurin buyla ish ne bildim, voy!*
*Kim o'zi ko'ksin o'zi chok etgay,*
*O'zi jonin o'zi halok etgay?*
*Ulcha men qildim, aylagaymu kishi,*
*Bu ish ermas edi kishining ishi!*
*...Naylayin bu jahonni jonsiz men,*
*Bul jahon birla jonni onsiz men?*
*Jonni olg'ilki, to'ymisham billoh!*
*Ko'ngul o'lmakka qo'ymisham billoh!»*

Dashtda tinimsiz kezib shu xilda fig'on chekar ekan, taxtu mamlakatini butunlay unutgan shoh biyobonni o'ziga manzilgoh qilib oldi. Buni ko'rgan shahar ahli ham dashtni o'zlariga vatan qildilar. Oqshom tushgach, tun Bahrom diliga yanada kuchliroq iztirob solib, uning ko'ziga olam go'rga o'xshab ko'rindi. U tun zulmat emas, hajr o'tidan jahonni tutun tutgandek edi. Shoh ahvolini kuzatayotgan mulozimlar saropardali oq uy tikib uni uy ichiga olib kirdilar-da, odamlarni bu uydan uzoqroqqa surdilar. Kishilar o'z hukmdorlari ahvoli haqida turli rivoyatlar to'qishar, biri «Uni dev chalg'itgan!» desa, boshqasi «Bu o'sha parivashning ishi», deb afsona aytardi.